Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 316

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

Frans Kafka ijodida shaxs va jamiyat ifodasi

Sarvarbek Abdusalom o’g’li Olimjonov[a,*], Saidaxon Juma qizi Mustafoyeva[b]

[a] *Farg‘ona davlat universiteti*
[b] *Farg’ona davlat universiteti*
✉ fachmann91@gmail.com

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar

Frans Kafka, shaxs, jamiyat, begonalashuv, ijtimoiy identiklik, byurokratiya, hokimiyat, absurd, ekzistensializm, “Evrilish”, “Jarayon”

DOI: 10.5281/zenodo.23278937

XX asr jahon adabiyoti tarixida Frans Kafka ijodi inson va jamiyat munosabatlarini yangicha badiiy-falsafiy talqin qilgan hodisalardan biri hisoblanadi. Kafka 1883-yilda Pragada tug‘ilgan va nemis tilida ijod qilgan. U huquqshunoslik sohasida tahsil olgan, sug‘urta bo‘yicha faoliyat yuritgan. Bu tajriba uning hayotini bevosita byurokratik institutlar, hujjatlar, me’yorlar va ma’muriy tartiblar bilan bog‘lagan.

Shu jihatdan Kafkaning byurokratiyani tasvirlashi faqat mavhum fantaziya emas, balki hayotiy tajriba bilan aloqaga ega bo‘lgan badiiy hodisa sifatida ham qaralishi mumkin. Biroq Kafka asarlarini uning tarjimai holidagi faktlarga bevosita tenglashtirish ham metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Badiiy obraz biografik faktning oddiy nusxasi emas, balki u muallif tajribasini estetik jihatdan qayta tashkil etgan badiiy konstruksiyadir.

Kafkaning ijodiy dunyosida inson ko‘pincha o‘ziga tushunarsiz, lekin hayotini boshqaradigan kuchlar qarshisida qoladi. Bu kuchlar ayrim hollarda oila, ayrim hollarda sud, qonun, davlat apparati, ish joyi yoki noma’lum hokimiyat shaklida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun Kafka ijodidagi markaziy muammolardan biri sifatida shaxsning o‘zligini saqlashi va ijtimoiy tizim tomonidan tan olinishi o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatish mumkin.

Ritchie Robertson Kafkani tahlil qilar ekan, uning ijodida tanaga munosabat, institutlarning inson ustidan hokimiyati va diniy-ma’naviy izlanish kabi zamonaviy muammolar muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydi [3,73]. Demak, Kafka ijodidagi shaxs-jamiyat muammosini faqat psixologik yoki faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy, falsafiy va ekzistensial qatlamlarning kesishgan nuqtasi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Kafkani anglash uchun uning asarlarini to‘liq va bevosita ekzistensializm adabiyoti deb belgilash ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki ekzistensializmning yaxlit falsafiy oqim sifatidagi shakllanishi Kafka ijodining asosiy davridan keyinroq namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, uning qahramonlaridagi yolg‘izlik, aybdorlik, tan olinmaslik, ma’no izlash va tushunarsiz dunyo oldidagi xavotir keyinchalik ekzistensial falsafada markaziy masalaga aylangan muammolar bilan chambarchas bog‘lanadi. Espen Hammer tahriridagi “Kafka’s The Trial: Philosophical Perspectives” ilmiy to‘plamida ham “Jarayon” asari aynan huquq, axloq, subyektivlik, zamonaviylik, metafizika va byurokratik ratsionalizatsiya kesishmasida tahlil qilinadi [1,23].

Kafka ijodidagi shaxs va jamiyat muammosining eng ixcham, ammo kuchli badiiy ifodalaridan biri "Evrilish" qissasida kuzatiladi. Asarning bosh qahramoni Gregor Zamza bir kuni uyg'onganida o'zini g'ayritabiiy mavjudotga aylangan holda ko'radi. Muhim jihati shundaki, Kafka Gregorning yangi holatini aniq zoologik nom bilan belgilamaydi. Nemischa "Ungeziefer" so'zi "zararkunanda hasharot", "parazit", "kemiruvchi jonivor" kabi ma'nolarni anglatadi [2,47]. Yozuvchi aynan mana shu so'zni ishlatish orqali matnda semantik mavhumlikni vujudga keltiradi.

Bu noaniqlikning o'zi muhim badiiy vazifani bajaradi: Gregorning insondan "begona mavjudot"ga aylanishi biologik o'zgarishdan ko'ra, uning ijtimoiy maqomdan chiqarib tashlanishi sifatida o'z ifodasini topadi.

Gregorning oiladagi mavqei uning mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'langan. U savdo vakili sifatida ishlaydi va oilaning iqtisodiy ehtiyojlarini qoplashga harakat qiladi. Shu sababli uning insoniy qadri amalda uning iqtisodiy funksiyasi bilan birlashib ketadi. Bu yerda "Agar inson jamiyatga iqtisodiy foyda keltira olmasa, uning ijtimoiy va insoniy qadri ham kamayadimi?" – degan haqli muhim savol tug'iladi. Kafka esa bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob bermaydi. Aksincha, oilaning Gregorga bo'lgan munosabati orqali muammoni dramatik vaziyatga aylantiradi. Gregor mehnat qila olmay qolgach, uning oiladagi maqomi ham o'zgaradi. Natijada shaxs va uning ijtimoiy funksiyasi o'rtasidagi chegara buziladi.

"Evrilish"da oila shaxsning jamiyat bilan munosabatini ifodalovchi kichik model vazifasini bajaradi. Dastlab Gregor oilani moddiy jihatdan ta'minlovchi subyekt bo'lsa, keyinchalik oila undan yuz o'giradi.

Shunday qilib, Kafka quyidagi paradoksni yaratadi: inson oilasi uchun o'z hayotini bag'ishlagan sari o'zligini yo'qotadi; o'zligini yo'qotgach esa oila uchun begona bo'lib qoladi. Bu jarayon begonalashuvning ikki tomonlama tabiatini ko'rsatadi. Bir tomondan, jamiyat yoki oila shaxsni begonalashtiradi; ikkinchi tomondan, shaxsning o'zi ham o'z mavjudligini faqat boshqalarning ehtiyojlari orqali belgilab, o'z "men"idan uzoqlashadi.

"Jarayon" romani Kafka ijodidagi shaxs va jamiyat muammosining eng murakkab ko'rinishlari ifoda etilgan asardir. Roman 1914 – 1915-yillarda yozilgan va yozuvchi vafotidan keyin, 1925-yilda nashr etilgan [5,3].

Asarning markazida bank xodimi Jozef K. turadi. U o'ziga qo'yilgan ayblovning mazmunini bilmagan holda sud jarayoniga tortiladi. U qaysi jinoyatda ayblanayotganini aniqlashga, tizimning mohiyatini tushunishga va o'zini himoya qilishga harakat qiladi. Biroq har bir yangi izlanish uning holatini yanada murakkablashtiradi.

Bu yerda Kafka huquqiy tizimning oddiy ishlamasligini emas, balki shaxsning tizimni tushunish imkoniyatidan mahrum qilinishiga ishora qiladi.

"Jarayon"dagi eng muhim paradokslardan biri shundaki, qonun mavjud, sud mavjud, amaldorlar mavjud, jarayon mavjud, ammo ayblanuvchi bu tizimning asosiy qoidalarini bilmaydi. Shu sababli qonun ikki xil vazifani bajaradi:

1. rasmiy jihatdan tartib va adolatni ta'minlovchi institut sifatida ko'rinadi;
2. amalda esa shaxs uchun tushunarsiz va yetib bo'lmaydigan kuchga aylanadi.

Roman o'quvchini Jozef K. duch kelgan jarayonning noaniqligiga jalb qiladi. Bu jihat Kafkaning badiiy uslubini tushunishda muhim hisoblanadi. O'quvchi ham qahramon kabi to'liq ma'lumotga ega emas. Demak, asar faqat qahramonning jamiyatga begonalashuvini tasvirlamaydi, balki kitobxonning o'zi ham Kafka yaratgan institutsional noaniqlik ichiga kiritiladi.

Jozef K.ning aybdorligi aniq jinoyat bilan bog'lanmaydi. Shu sababli "ayb" tushunchasi huquqiy kategoriyadan ekzistensial kategoriyaga siljiydi. Inson o'zini aybdor his qilishi uchun albatta jinoyat sodir etgan bo'lishi shart emas. Kafka aynan shu holatni badiiylashtiradi: noma'lum ayb inson ongida real psixologik bosimga aylanadi. Shu jihatdan roman zamonaviy insonning tashqi nazoratdan holi ichki nazorat mexanizmlariga ham ishora qiladi. Tizim insonni doimiy ravishda "o'zini oqlash" holatiga olib keladi.

Frans Kafka ijodida shaxs va jamiyat muammosi XX asr modernistik tafakkurining eng muhim masalalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi insonning oilaviy, kasbiy, huquqiy va institutsional munosabatlar tizimida o'zligini saqlash jarayonini fojiaviy, paradoksal va absurd vaziyatlar orqali tasvirlaydi.

"Evrilish"da shaxsning begonalashuvi oila va mehnat munosabatlari doirasida ochiladi. Gregor Zamzaning inson sifatidagi qadri uning iqtisodiy funksiyasi bilan chambarchas bog'lanib qoladi. Uning mehnat qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishi bilan oiladagi mavqei ham izdan chiqadi.

“Jarayon”da bu muammo huquqiy institut darajasiga ko‘tariladi. Jozef K. noma’lum jinoyatda ayblanadi va o‘zining aybsizligini isbotlashga urinarkan, tizimning ichki qoidalari unga ochilmasligini anglaydi. Shu tariqa qonun tartib va adolat ramzidan shaxs uchun tushunarsiz hokimiyat mexanizmiga aylanadi.

Frans Kafka ijodining markazida faqat “jamiyat tomonidan ezilgan inson” emas, balki o‘zligini anglashga va tan oldirishga urinayotgan, biroq uni o‘rab turgan ijtimoiy va institutsional mexanizmlarning mohiyatini to‘liq anglay olmayotgan inson obrazi turadi. Ana shu jihat Kafkaning badiiy-falsafiy merosini zamonaviy adabiyotshunoslik uchun doimiy tadqiqot obyektiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hammer E. (ed.). Kafka’s The Trial: Philosophical Perspectives. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 304 p.
2. Preece, J. (ed.). The Cambridge Companion to Kafka. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 280 p.
3. Robertson R. Kafka: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 152 p.
4. Кафка Ф. Эврилиш: ҳикоялар ва мактублар. Таржимонлар: Э. Эрназаров ва бошқ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 256 б.
5. Кафка Ф. Жараён. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 336 б.